
HOKIM MAKTAB BITIRUVCHILARI BILAN UCHRASHDI

Avval xabar berganimizdek, Oltiariq tumani hokimi umumta'lim maktablari bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan uchrashuvlar o'tkazmoqda.



Bugun, 1 iyul kuni tumandagi 20-umumta'lim maktabida o'tkazilgan navbatdagi uchrashuvda hududdagi umumta'lim maktablarini, kollej va kasb-hunar maktablarini tamomlayotgan bitiruvchi yoshlar ishtirok etdi.

Tadbirda kecha Prezidentimizning yoshlar bilan uchrashuvi va unda ilgari surilgan islohotlar, keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlarning bilim olishi, yosh iqtidor egalarining iste'dodini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati haqida so'z bordi.

Yoshlar o'zlarini qiziqtirgan vasollari va bir qator takliflarini tuman rahbariga bildirdilar.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-01 11:54:05